

muloqot qilish qobiliyati, madaniyatlararo muloqot uchun qobiliyat va tayyorlik., qadriyat oriyentatsiyalarini rivojlantirish, tabiat, jamiyat, odamlarning ma’naviy tajribasi va o‘zini yo‘naltirish orqali shaxsnинг jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlash. Fikrimizcha, nemis tili o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida yetakchi faoliyat sifatida muloqot jarayoniga alohida e’tibor qaratish lozim. Muloqot ham maqsad, ham chet tilini o‘qitish vositasidir. Faqat muloqot orqali o‘qituvchi nemis tilini o‘qitishning belgilangan maqsadlariga erishadi.

ФОЙДАЛАНИГЛАН АДАБИЁТЛАР

1. Глумова Е.П. Методика обучения организации межкультурного общения на материале регионального компонента (немецкий язык) дис. ...канд. пед. наук – Н.Новгород, 2006. – 23 б.
2. Еремин Ю.В. Основы профессиональной коммуникативной подготовки учителя иностранного языка, СПб, – РГПУ им. Герцена, 2001. – 181 б.
3. Жалолов Ж.Ж. Чет тили ўқитиши методикаси. Тошкент, 1996.
4. Зарипова Р.А. Чет тили ўқитиши методикасидан қўлланма. Тошкент, 1986.
5. Китайгородская, Г.А. Психолого-педагогические принципы метода активизации резервных возможностей личности обучаемого: Активизация учебной деятельности – М.: Педагогика, 1981.– С. 5-18.
6. Коряковцева Н.Ф. Продуктивное языковое образование и новая роль учителя ИЯ// Материалы научно-практической конференции «Многоязычие и поликультурность в современном мире и школе» МДО. – М., 2007. –209 с.
7. Пассов Е.И. Мастерство и личность учителя ИЯ – М.: Флинта, 2001. –254 с.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION YONDASHUVCHI MUTAXASISLAR

*Jomonqulova Fazilat Esirgapovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti,
t.f.n +998994499561, e-mail: fazilat_72@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada malakali kadrlarni tayyorlash va ularning bilimi, saviyasini oshirish, yurtimizni gullab yashnashi uchun barcha imkoniyatlardan unumli foydalanib, dunyo miqiyosidagi o‘qitish tizimidan yuqori o‘rinlarga olib chiqish haqida yuritilgan. Mazkur maqolada yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullarning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion texnologiyalar, innovatsion ta’lim texnologiyalari, interaktiv usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborotlashgan iqtisodiyot, axborot, texnologiya, tizim, axborot texnologiyasi, axborotlashgan jamiyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Аннотация: В этой статье основное внимание уделяется обучению и подготовке квалифицированных кадров, которые позволяют нашей стране процветать и выводить ее на передовые рубежи образования мирового уровня. В этой статье обсуждаются важность современных методов защиты молодых людей от информационных атак и формирования информационный иммунитет.

Ключевые слова: инновация, инновационные технологии обучения, интерактивные методы, информационные и коммуникативные технологии, информационная экономика, информационное общество, информационно-коммуникационные технологии.

Abstract: This article focuses on the training and training of qualified staff, making the most of the opportunity for our country to flourish and to bring it to the forefront of world-class education. This article discusses the importance of modern methods of protecting young people from information attacks and the formation of informational immunity.

Keywords: Innovation, innovative learning technologies, interactive methods, information and communication technologies, Information economy, information society, information and communication technologies.

Har bir iqtisodiy barqaror mamlakat borki, aholi turmush tarzini yaxshilanishiga, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirilishiga katta e’tibor qaratadi. Shu qatorda bizning mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar ham jadal sur’atlarda odimlamoqda. Lekin tan olib aytish kerakki, bu sohadagi kamchiliklar hali anchagina. Hozirgi paytda sohadagi modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi tajrija asosidagi raqobatbardosh ta’lim turlarini kengaytirishga davlat miqyosida ahamiyat berilmoqda. Avtomatlashtirish – bu bugungi kun asosiy talabidir. Har bir korxona, tashkilot ma’lumotlar bazasida ishni to‘liq ishga qo‘yish uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimi asosiy o‘rinda hisoblanadi. Demak, Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari – asosiy muammoli jarayonlar yechimidir. Innovatsion tizimini ishlab chiqishdan maqsad - tashkiliy loyihalashtirish, texnologik va boshqa jihatlarini hisobga olgan holda tizim faoliyatining samaradorligini oshirishdir.

Metodologik asosida yangi texnologiyalarni aniqlash, usul va uslublarning tizimi va turini, shuningdek bu texnologiyalar o‘zaro qanday bog’langanligi berilgan, ayrim hollarda siz texnologiyalarni tekshirishning xususiyatlarini aniqlash hamda usul va uslublarni turli yondashuvlar bilan qayta ishslash mumkinligini tahlil

qilishingiz mumkin. Ixtiyoriy muhitni tanlash, filtrlash va innovatsion texnologiyalarni saralash mumkinligi ko'rsatilgan. Texnologiyani unga o'zaro bog'langan boshqa texnologiyalar bilan birlashtirish va yakuniy natijani hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Ilmiy va texnologik taraqqiyotning jadallahuvi va sanoat dan post-sanoatga o'tish vaqtida barcha tijorat tuzilmalari moslashuvchan bo'lishni talab etadi, faoliyatning barcha yo'nalihlari bo'yicha ishlarning shakllari va usullarini muntazam yangilab borish uchun nima zarurligini quyidagi misolda kurib chiqamiz: Global raqobat sharoitida innovatsiyalardan foydalanish rivojlanishning asosiy omili bo'lib, ya'ni har qanday yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (mahsulot yoki xizmat) yaratish Tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga va yangi ish o'rinalarini tashkil etishga yordam beradi. Agar an'anaviy ta'limotda maqsad talabalarga ma'lum bir ma'lumotni etkazish bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda, ularni fikrlashga, shaxsiy va kasbiy malakalarini shakllantirish o'rgatiladi.

Yangi bilimlar tizimini shakllantirishda oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarning muntazam kasbiy o'sishda interfaol uslublar, pedagoglarning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yunaltirilgan innovatsion metodikalar, masofadan o'qitishni, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulotlar olib borish malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Innovatsiya (inglizcha *Innovation*) yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol («Inter» - bu o'zaro, «ast» - harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim biladir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talaba (yoki o'quvchi)larning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Ta'limning innovatsion usullari mantiqiy fikrlashni, analitik ko'nikmalarini, tizimni tahlil qilish ko'nikmalarini, disiplinali aloqalarni rivojlantirish, kengaytirish, ijodiy fikrlashni shakllantirish, nostandart muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuv, o'ziga ishonch, psixologik barqarorlikni mustahkamlash, professional yondashuv va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishda har qanday tashabbuskor mutaxassis tanlangan yo‘nalishda butun ish davomida yangi bilimlarni o‘zlashtirishga xarakat qiladi.

Ma'lumotni chiziqli bo‘lmagan taqdimot bilan darsliklarda ishlash juda ham qiziqarli bo‘lib, ko‘p manbalarga asoslangan axborot resurslari o‘rtasida navigatsiya tizimidan foydalanish, bu orqali o‘quvchilar onlayn materiallarni o‘rganish ketma-ketligini o‘zлari tanlaydi. Ushbu tizimlar o‘quvni shaxsiylashtiradi, o‘quvchilarning qiziqishi va mustaqilligini rivojlantirish, axborot oqimini boshqarish, zarur materiallarni topish, ularning munosabatlarini tushunish uchun imkoniyat yaratadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan ta`lim-tarbiya jarayonida talabalarga muayyan fan (mavzu) bo‘yicha bilim berish va shaxsini shakllantirishga qaratilgan o‘qitishning zamonaviy uslublari va texnik vositalari majmuidir.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi fikrlarni xulosalash qilish uchun Insert jadvalini qo‘llashimiz mumkin. *Insert jadvali* Talabalarda ma`ruzalar va mustaqil ta`lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma`lumotlarni tizimlashtirishni, uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad qilish, qabul qilinayotgan ma`lumotlarning tushunarligini nazorat qilish, avval egallagan bilimlarini yangisi bilan bog‘lash qobiliyatlarini shakllantiradi. Shu sababli, ushbu uslub mavzu bo‘yicha rejadagi mashg‘ulotlar o‘zlashtirilgach, talabalar mavzuga oid bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgach qo‘llaniladi. O‘qituvchi mavzuning aniq mazmun va mohiyatini yoritib beradi va dars yakunida talabalarga ushbu mavzu bo‘yicha “Insert” jadvali asosida uyda mustaqil ishlashlari uchun topshiriq beradi. Talabalar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o‘z bilimlari, real hayotiy tajribalari bilan taqqoslaydi, mavzu bo‘yicha mustaqil ishlab, yangi ma`lumotlar oladi, ularni matnda qo‘yilgan belgilar asosida jadvalga kiritadi.

Insert jadvali

V	+	-	?

«V» - haqidagi bilimlarimga javob beradi;

«-» - haqidagi bilimlarimga qarama-qarshi;

«+» - yangi ma`lumotlar;

«?» - mavzuga oid tug‘ilgan savollar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan barcha metodik texnologiyalardan interfaol usullardan foydalanib dars o‘tilganda guruhda qoloq, o‘zlashtirmaydigan talaba qolmaydi, ta’limda multimediali axborot-resurslaridan

foydalishda esa ularning eng samarali vosita va ta'lim mazmunini boyituvchi omil ekanligi yaqqol namoyon bo'lib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ishmuhamedov R. Abdukodirov A. Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- T.: Iste'dod, 2008.- 180 b.
2. Jamankulova, F.E., & Nizomov, M.Q. (2020). The Notion Of Information And Its Significance In The State Economy. CUTTING EDGE-SCIENCE, 20;
3. Jomonkulova, F.E., Nizomov, M.Q., & Uralov, S.A. (2020). To make radical changes in the system of higher education for the training of qualified personnel. In Colloquium-journal (No. 29-2, pp. 13-14);
4. Jomonkulova, F.E., Tojiyev, N.S., Nizomov, M.Q., & Uralov, S.A. (2020). of informatization and its role in the economy of the country. In Colloquium-journal (No. 29-1, pp. 60-61);

МАМЛАКАТИМИЗДА ЕТУК КАДРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ АҲАМИЯТИ

**Ш.З Ўрзоз – Самиси
катта ўқитувчиси**

Аннотация: Мақолада узлуксиз таълимнинг мазмун-моҳияти, уни ташкил этиш шакллари ва тамоиллари ҳамда глобаллашув шароитида рақобатбардош кадрлар тайёрлашда узлуксиз таълимнинг инсонларнинг шахсий ва касбий ривожланишида тутган ўрни ва аҳамияти ёритилган. Шунингдек, республикамизда узлуксиз таълим тизимини ислоҳ этиш тенденциялари таҳлил қилиниб, тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: таълим, узлуксиз таълим, “узлуксиз таълим” концепцияси, узлуксиз таълим тизими, таълим шакллари, ҳаёт давомида таълим олиш, инновацион жамият.

Аннотация: В данной статье рассмотрены суть и содержание непрерывного образования, его организационные формы и принципы, а также роль и значение непрерывного образования в подготовке конкурентоспособных кадров в развития формировании интеллектуального и профессионального развития человека в условиях глобализации. Проанализированные тенденции и даны рекомендации по реформированию непрерывного образования республике.

Ключевые слова: образование, непрерывное образование, понятие «непрерывное образование», система непрерывного образования, формы обучения, непрерывное обучение, инновационное общество.